SUN'IY INTELEKT DAVRIDAGI TA'LIM TIZIMI: IJTIMOIY, HUQUQIY VA XALQARO JIHATLAR

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi metodisti
Muhammedova Nafisa Nigmanovna
nafisa.muxamedova.21@gmail.com

Annotatsiya. Sun'iy intelekt vositalari yordamida maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu raqamli transformatsiyasidan foydalanishni kengaytirishdir. Shu munosabat bilan, maktab o'qituvchilarining sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga bag'ishlangan ushbu maqola mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Maqolada sun'iy intellektning yaratilish tarixi, asosiy turlari, vositalari, kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari va axborot-kommunikatsion kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kasbiy va axborot-kommunikatsion kompetensiyalar, axborot texnologiyalari.

Аннотация. Одним из наиболее эффективных способов развития профессиональной компетентности школьных учителей с использованием инструментов искусственного интеллекта является расширение использования цифровой трансформации. В связи с этим тема данной статьи, посвященная развитию профессиональной компетентности школьных учителей с использованием инструментов искусственного интеллекта, является актуальной.

В статье рассматриваются история создания искусственного интеллекта, его основные виды, инструменты, основные компоненты профессиональной компетентности и технологии развития информационно-коммуникационной компетентности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, профессиональные и информационно-коммуникационные компетенции, информационные технологии.

Abstract. One of the most effective ways to develop the professional competence of school teachers through artificial intelligence tools is to expand the use of digital transformation. In this regard, the topic of this article, which focuses on the development of the professional competence of school teachers using artificial intelligence tools, is highly relevant.

The article examines the history of artificial intelligence, its main types and tools, the key components of professional competence, as well as technologies for developing information and communication competence.

Keywords: artificial intelligence, professional and information and communication competencies, information technologies.

Kirish

Hozirgi vaqtda inson, chuqur bilimga ega bo'lishi va sun'iy intellektdan foydalana olishi lozim. Har qanday muammoning yechimi uning nazariy asoslarini o'rganishdan boshlanadi.

Muammoning nazariy asoslari deganda, shu sohadagi mavjud tushunchalar, qonun va qonuniyatlarni bilish hamda jamiyat manfaatlariga qanday xizmat qilishini nazarda tutadi.

Bugun ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, zaruriy va yetarli shart sharoitlar yaratish, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda sun'iy intellekt asosida ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari va bir qator hukumat qarorlarida maktab o'qituvchilari faoliyatini demokratik tamoyillar va innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirishni, qog'ozsiz ishlashga o'tishni hamda axborotlashtirilgan muhitni yaratishni taqazo etmoqda.

Maktab o'qituvchilari sun'iy intellektni bilishi, ulardan foydalanishi, turli sharoitlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborot ayirboshlashi va undan oqilona foydalana olishi, axborot-ta'lim muhitiga yaxlit tizim sifatida qarashi, ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum maqsadga yo'nlatirilgan faoliyatni rejalashtirishi, tashkil etishi, nazorat va tahlil qilishi, xolisona baholashi va muvofiqlashtira olishi lozim.

Shunday ekan, maktab o'qituvchilardan axborot oqimining doimiy ravishda o'sib borishini inobatga olib, sun'iy intellektni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarga oid bilimlarni muntazam oshirib borishi, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishi va ulardan samarali foydalana olishi ham talab etiladi.

Sun'iy intellektning jadallik bilan rivojlanib borishi maktab o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga bo'lgan ehtiyojlarini oshirmoqda va maktab o'qituvchisining kasbiy hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishda samarali mexanizmlarni joriy etishga ehtiyoj mavjud bo'lib, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib, maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzu juda dolzarb, chunki ta'limda sun'iy intellekt maktab o'qituvchilarning malakasini oshirish, metodik yondashuvlarini boyitish va o'quvchilarga samarali ta'lim berishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bugunfi zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilar axborot-kommunikasiya kompetensiyasiga ega bo'lishlari ta'lim samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellekt vositalari bu jarayonda o'qituvchining tezkor axborot olish, tahlil qilish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida yangiliklarni kuzatib borishi, dars jarayonini interaktiv va ijodiy tashkil qilishi mumkin.

Hozirga kelib sun'y intellekt keng ko'lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib maktab o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasida turli mamlakatlarda bir-biridan qator farqlanishlar borligini ko'rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Angilya, Fransiya, Germaniya va Fillandiya kabi davlatlarda sun'iy intellektdan foydalanilgan xolda dars jarayonlarini tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda.

Raqamli kompetensiya orqali o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligini egalalshda Janubiy Koreya ta'lim tizimni misol tariqasida keltirish mumkin.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi kasbiy va axborot-kommunikatsion kompetensiyalar hisoblanadi va o'qituvchining o'z faoliyatida sun'iy intellekt vositalaridan mustaqil va mas'uliyat bilan foydalanishga tayyorligini bildiradi.

Sun’iy intelekt inson qila oladigan hamma narsani o‘rganishga qodir tadqiqotchilar sun’iy intellekt 2060-yilga kelib insonning deyarli barcha vazifalarini mustaqil ravishda bajara olishiga umid qilishmoqda.

Zamonaviy uslubiy adabiyotlarda maktab o‘qituvchisining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy mahorat darajasini anqilashda “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetentsiyalari” atamasi qo‘llaniladi.

Yangi avlod standartlari kompetentsiya ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyati uchun bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni qo‘llash qobiliyatini belgilaydi.

Lug‘atda kompetentsiya tushunchasining mohiyati quyidagi to‘rtta toifaga ajratiladi:

shaxs parametrlari;

vazifalar va faoliyatni bajarish;

kasbiy faoliyatni bajarish;

ishlash natijalarini boshqarish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi murakkab tushuncha bo‘lib, texnik bilim va ko‘nikmalarni real ta’lim faoliyatida maqsadli, samarali qo‘llash sifatida qaraladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бостром Н. Искусственный интеллект. Этапы. Угрозы. Стратегии. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016. 496 с.
2. Люгер Д.Ф. Искусственный интеллект. Стратегии и методы решения сложных проблем. М.: Вильямс, 2005. 864 с
3. U.Begimqulov Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazaryasi va amaliyoti. Pedagokiga fanlari bo‘yicha falsafa foktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2007.- 36 b.
4. E.Chudina, Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi / E.Chudina // Pedagogik majmua uzluksiz pedagogik ta’limning mintaqaviy tizimi sifatida: ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruza tezislari. - Volgograd: O‘zgarish, 2011. - S. 182-184.
5. E.Klimov, Kasbiy o'zini o'zi belgilash psixologiyasi /E.Klimov. - Moskva: Ed. markazi “Akademiya”, 2010. - 304 b. -ISBN 978-5-7695-5690-6.